



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot*  
*2023- yil yanvar-may*




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **96 330** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **324** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **96 006** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-may oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **108 654,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **107,2** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **18 713,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **118,8** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **89 940,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,1** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **10 970,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,6** %) tashkil etdi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>108 654,0</b>	<b>107,2</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 581,9	103,6
<i>viloyatlar</i>		
Andijon	7 634,7	104,9
Buxoro	6 053,4	103,7
Jizzax	2 953,5	105,2
Qashqadaryo	7 227,0	103,7
Navoiy	3 843,4	104,1
Namangan	6 775,6	106,0
Samarqand	10 105,4	105,9
Surxondaryo	7 030,2	104,5
Sirdaryo	1 803,2	105,1
Toshkent	9 919,3	106,4
Farg'ona	8 807,9	107,2
Xorazm	4 120,9	103,0
Toshkent sh.	21 676,6	112,7


2023- yilning yanvar-may oyida 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan respublikaning Toshkent shahri (**112,7** %), Farg'ona (**107,2** %) va Toshkent (**106,4** %) viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI




### Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-may)



So'nggi 5 **yillikda** (2019– 2023 - yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **111,0 %** ni tashkil qildi.


### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar –may oyi)



2023- yilning yanvar-may oyida o'sish sur'ati **107,2 %** ni tashkil qildi.



## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri **26,5 %** bilan **28 797,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Sirdaryo viloyati **1,7 %** bilan **1 803,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **67 431,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022–yilning yanvar-may oyiga nisbatan **5,2 %** ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,8 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **18,8 %** ga o'sdi va **18 713,0** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,2 %** ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Surxondaryo (**97,0 %**), Qashqadaryo (**94,9 %**) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (**95,4 %**) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **17,2 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahri (**40,3 %**), Samarqand (**19,2 %**) va Toshkent (**13,9 %**) viloyatlarida kuzatildi.



## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>3 008,9</b>	<b>105,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 810,0	102,2
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 292,4	102,7
Buxoro	3 006,9	102,0
Jizzax	1 996,5	102,9
Qashqadaryo	2 070,4	101,5
Navoiy	3 632,7	102,0
Namangan	2 254,8	103,6
Samarqand	2 448,0	103,7
Surxondaryo	2 498,1	102,1
Sirdaryo	2 006,2	103,0
Toshkent	3 306,1	104,5
Farg'ona	2 210,0	105,0
Xorazm	2 100,8	101,2
<b>Toshkent sh.</b>	<b>3 008,9</b>	<b>105,0</b>

2023- yilning yanvar-may oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 008,9** ming. so'mni (2022- yilning yanvar – may oyiga nisbatan **105,0** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (**9 705,0** ming. so'm), Navoiy (**3 632,7** ming. so'm) va Toshkent (**3 306,1** ming. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Respublika bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **10 970,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **106,6 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **5 401,2** mlrd. so'mni (**118,3 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **5 569,6** mlrd so'mni tashkil etdi (**97,3 %**).

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (2023 –yil yanvar-may uchun, foizda)





## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.




### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kiosklari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.



## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>10 970,8</b>	<b>106,6</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	455,6	110,9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	1 100,8	102,2
Buxoro	716,6	105,5
Jizzax	809,5	100,7
Qashqadaryo	990,2	101,6
Navoiy	258,3	104,7
Namangan	1 019,5	105,0
Samarqand	988,4	109,8
Surxondaryo	1 406,4	113,8
Sirdaryo	190,5	110,6
Toshkent	829,0	110,2
Farg'ona	728,1	109,8
Xorazm	760,6	102,7
Toshkent sh.	717,4	109,3








\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2023-yilning yanvar-may oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **5 401,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**2 398,2** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	2 398,2
	Non va non mahsulotlari	682,2
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	583,8
	Tovuq go'shti	297,1
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)	283,6
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	189,3
	Tuxum	216,3
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak	112,9
	Ziravorlar	204,9
	Tuzlamalar	142,0
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	76,3
	Nooziq-ovqat tovarlari	214,7

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-may oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **5 569,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **4 468,5** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **903,2** mlrd. so‘mni, otlar – **170,5** mlrd. so‘mni, parrandalar – **27,4** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	2 505,8
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	819,9
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	1 142,8
	Qo‘ylar	767,6
	Otlar	170,5
	Echkilar	135,6
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	15,4
	Tovuqlar	10,6
	Quyionlar	0,9
	Qushlar	0,5



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil **1- iyun** holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **24 725** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **273** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **24 452** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>5 310,5</b>	<b>107,1</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	111,7	102,7
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	141,6	104,0
Buxoro	243,4	102,9
Jizzax	116,7	104,0
Qashqadaryo	198,7	103,2
Navoiy	164,4	105,4
Namangan	157,5	105,7
Samarqand	398,8	105,6
Surxondaryo	163,1	103,8
Sirdaryo	53,9	104,5
Toshkent	485,6	102,8
Farg'ona	224,7	106,7
Xorazm	129,4	104,3
Toshkent sh.	2 720,9	109,8


2023- yilning yanvar-may oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **5 310,5** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,1** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **75,9** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyun holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **27 179,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,7 %** ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **11 259,9** mlrd. so'm (o'sish sur'ati – **97,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **15 919,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **104,9 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>27 179,0</b>	<b>100,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	766,4	2,8
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	1 525,4	5,6
Buxoro	1 384,8	5,1
Jizzax	1 928,1	7,1
Qashqadaryo	888,5	3,3
Navoiy	1 340,9	4,9
Namangan	1 263,7	4,6
Samarqand	996,4	3,7
Surxondaryo	1 048,7	3,9
Sirdaryo	166,8	0,6
Toshkent	1 860,9	6,8
Farg'ona	1 500,0	5,5
Xorazm	1 963,2	7,2
Toshkent sh.	10 545,2	38,8

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (**10 545,2** mlrd. so'm), Xorazm (**1 963,2** mlrd. so'm) va Jizzax (**1 928,1** mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Respublika bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **98 063,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **10,9 %** ga o'sdi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **70 756,6** mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **130,1 %** ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **72,2 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar, Sirdaryo, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **45 764** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **349** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **45 415** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>98 063,9</b>	<b>110,9</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 300,1	105,6
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 322,3	106,4
Buxoro	4 781,7	107,4
Jizzax	1 152,0	99,6
Qashqadaryo	2 075,3	106,9
Navoiy	1 012,2	108,1
Namangan	3 711,4	108,0
Samarqand	4 934,1	113,7
Surxondaryo	1 872,4	101,2
Sirdaryo	1 198,2	105,8
Toshkent	9 766,4	109,7
Farg'ona	5 905,2	109,8
Xorazm	2 265,2	104,7
Toshkent sh.	55 767,3	112,0



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi  
Tel. 71-202-80-44 (45)**